

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING KASB MAHORATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

Abduraxmonov Shavkat Kaxxorovich

Farg'ona davlat universiteti

Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrası dotsenti v.b.

ORCID:0009-0003-0631-2697

abduraxmonovs614@gmail.com

Annotatsiya. Maqola jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mutaxassislarning malaka darajasi, pedagogik va amaliy kompetensiyalarini oshirishdagi asosiy to'sqinliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada kasbiy mahoratni rivojlantirishning zamonaviy metod va texnologiyalari, jumladan, malaka oshirish kurslari, seminarlar, innovatsion treninglar va mentorlik tizimining ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali professional tayyorgarlikni ta'minlash uchun takliflar ishlab chiqishga imkon beradi. Maqola ilmiy-amaliy va nazariy jihatdan kasbga oid kompetensiyalarni oshirish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va mutaxassislarning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, kasbiy mahorat, malaka oshirish, professional kompetensiya, innovatsion trening, mentorlik.

ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме развития профессионального мастерства специалистов по физической культуре и спорту. В статье анализируются теоретические и практические аспекты повышения квалификации специалистов, а также рассматриваются современные методы и технологии повышения эффективности профессиональной подготовки. Результаты исследования показывают, что для достижения успеха в педагогической и спортивной деятельности важно комплексно развивать физические, методические и психологические компетенции. Статья также содержит рекомендации по совершенствованию процесса профессиональной подготовки для практикующих специалистов и образовательных учреждений.

Ключевые слова: физическая культура, специалист по спорту, профессиональное мастерство, квалификация, компетенция, подготовка

THE PROBLEM OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL SKILLS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Abstract. This article is devoted to the issue of developing the professional skills of physical education and sports specialists. It analyzes the theoretical and practical aspects of

enhancing specialists' qualifications and considers modern methods and technologies to improve the effectiveness of professional training. The research results indicate that achieving success in both pedagogical and sports activities requires the comprehensive development of physical, methodological, and psychological competencies. The article also provides recommendations for improving the professional training process for practitioners and educational institutions.

Keywords: *physical education, sports specialist, professional skills, qualification, competence, training*

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini kompleks rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda yuqori malakali sport va pedagog kadrlarini tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi 392-sonli Farmoni jismoniy tarbiya ta'limini tubdan isloh etish, umumta'lim maktablarida pedagog-o'qituvchilar malakasini oshirish va ularning professional kompetensiyalarini baholash tizimini joriy etish choralarini belgiladi, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy toifalarini baholash tizimini takomillashtirish rejalashtirildi.

Bundan tashqari, Prezident tomonidan 2024-yil 18-dekabrdagi 443-sonli Farmon bilan har haftaning payshanba kunini "Jismoniy tarbiya va sport kuni" deb e'lon qilish hamda sport maktablarini ixtisoslashtirilgan yo'nalishlarga ajratish orqali sport sohasidagi malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada mustahkamlash belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-sonli Qarori jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish choralarini belgilab, sohaga oid kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha huquqiy poydevor yaratildi.

Mazkur hujjatlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning kasbiy mahoratini tizimli ravishda oshirish, ularning pedagogik ko'nikmalari hamda amaliy salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha davlat tomonidan strategik yo'nalish belgilanganligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, maqolada sport va

jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirishning amaliy muammolari hamda samarali yechimlari, mavjud institutsional mexanizmlar orqali baholanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish masalasi pedagogika va sport nazariyasi sohasida keng o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik kompetensiyalari va amaliy ko'nikmalari ularning samarali faoliyati uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, pedagogik va metodik yondashuvlarni qo'llash muhimligi ta'kidlangan. Masalan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirish va mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, adabiyotlarda uzluksiz ta'lim, malaka oshirish kurslari va amaliy tajriba almashish orqali mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan. Bu tadqiqotlar jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori natijalarga erishish uchun nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kasb mahorati rivojlanishining dastlabki bosqichlarida jismoniy tarbiya mutaxassisiga, odatda, sport mashg'ulotlari sohasidagi harakat faolligiga ichki, shuuriy, chetdan ilg'anmaydigan rag'batlar, istaklar ta'sir qiladi. Tor doiradagi kasbiy faoliyatning tanlanishi - sof shuuriy hodisadir, ya'ni o'zini namoyon qilishning eng jozibali shakli bo'lgan sportda nafaqat shaxsiy takomillashish ehtiyojini anglash, balki bunga o'z o'quvchilarini (tarbiyalanuvchilari, talabalari) o'rgatish mahoratini egallab olish bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, jismoniy tarbiya sohasidagi kasbiy faoliyat birinchi navbatda shaxsning ongli yondashuvi bilan belgilanadi.

Kasb mahoratida mutaxassisning yuksak namuna modeliga kasbiy faoliyat mazmuni va mutaxassisning shaxsiy sifatlariga bo'lgan ilmiy asoslangan me'yorlar hamda talablar kiradi. Ular kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajarish imkonini

beradi. Bu majburiyatlar ma'nosiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita mazmundor jihatlarga ega. Birinchidan, kishining kasbiy faoliyati davomida egallab oladigan sifatlari yig'indisidir (me'yoriy kasb mahorati). Ikkinchisi, bu professional shaxsning ichki dunyosi. Bunday insonda kasbiy sifatlarning to'plami shaxsning mazmuniy qismiga aylangan.

Pedagogning shaxsi, uning qiyofasi o'quvchilar oldida katta ahamiyatga ega, bilim berish va tarbiya jarayonida o'qituvchining obro'si o'quvchilarning jismoniy tarbiya mashqlarini aniq bajarishlarida qiyinchilik tug'dirmaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining, sport murabbiyining obro'si uning kasbiga bo'lgan hurmatiga bog'liq, uning ayrim xislatlari, shuningdek, uning jalb qila olish qobiliyati shu bilan birga asosiy o'rinni egallaydi.

Tadqiqotda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish masalasini chuqur o'rganish uchun bir nechta metodlar qo'llanildi. Metodlar tanlanishi mavzuning nazariy va amaliy jihatlari o'rganishga xizmat qilishi zarur.

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish – bu metod tadqiqotning nazariy asosini yaratadi. Tadqiqotchi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy maqolalar, monografiyalar, ilmiy-tadqiqot hisobotlari va xalqaro manbalarni o'rganadi. Bu orqali mavzuga oid ilgari o'rganilgan ilmiy qarashlar, metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar aniqlanadi. Shu metod yordamida sohadagi mavjud nazariy kontseptsiyalar va kasbiy malaka rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.

2. Pedagogik kuzatish – bu metod orqali tadqiqotchi real pedagogik jarayonni kuzatadi, ya'ni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'qituvchilar va murabbiylarning ish faoliyatini, mashg'ulotlarni tashkil etish usullarini va o'quvchilarning faoliyatini baholaydi. Kuzatish metodidan foydalanish orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyatdagi muammolar va samaradorlik darajasi ham aniqlanadi.

3. Taqqoslash metodi – turli manbalardagi ilmiy tadqiqotlar, metodik tavsiyalar va amaliy tajribalarni solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Bu metod tadqiqotchi uchun muammoning asosiy yo'nalishlarini belgilash va samarali yechimlarni tanlashda yordam beradi.

4. Tahlil va umumlashtirish – tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtiriladi, muhim xulosalar chiqariladi va mavzuga oid ilmiy natijalar shakllantiriladi. Umumlashtirish metodi orqali nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi, mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning samarali yo'llari tavsiflanadi.

Shu tariqa, ushbu metodlar birgalikda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda, nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu metodologik yondashuv tadqiqotning ishonchliligi va natijalarning amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodlar

No	Metod nomi	Metodning mazmuni	Tadqiqotdagi ahamiyati
1	Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish	Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga oid ilmiy, pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish	Tadqiqotning nazariy asosini yaratish va muammoning ilmiy jihatlarini aniqlash
2	Pedagogik kuzatish	Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchi va murabbiylarning faoliyatini hamda mashg'ulotlarni tashkil etish usullarini kuzatish	Amaliy faoliyatdagi muammolar va samaradorlik darajasini aniqlash
3	Taqqoslash metodi	Turli ilmiy manbalardagi fikr va tajribalarni o'zaro solishtirish	Muammoning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda samarali yondashuvlarni tanlash

4	Tahlil va umumlashtirish	Olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish	Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish
---	--------------------------	--	---

Mutaxassis shaxsining xususiyatlari ichida jismoniy tarbiya va sportda yuqori natijalarga erishish uchun tirishqoqlik, qat'iyatlilik, bir so'zlik, shaxsni yaxshi tushunish, guruhni to'g'ri va ijobiy baholash, o'z rejasi asosida ishlash, o'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lish muhimdir. Jismoniy tarbiya va sport to'grisidagi qonunchilikning eng asosiy yo'nalishi - bu insonni har tomonlama rivojlantirish, soglom turmush tarzini o'rnatish, jismoniy va ma'naviy barkamollikka bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportning istalgan turlari bilan shugullanish uchun shart-sharoitlar yaratish, kasb-amaliy tayyorgarlikni ta'minlash, kasalliklar, zararli odatlar hamda qonunbuzarliklarning oldini olishni tashkil etishdan iborat. Mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etadi, jismoniy tarbiya va sport sohasida fuqarolar manfaatlarining huquqiy himoyasini amalga oshiradi va boshqalar.

Jismoniy tarbiyani boshqarish va sportni rivojlantirish sohasida mutaxassislar malakasini oshirish hamda kasb mahoratini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jamiyatning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida muvaffaqiyatli ish olib bora oladigan Respublikamizning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi. Jismoniy tarbiya boshqaruvi sohasidagi xodimning kasbiy faoliyati keng miqyosdagi jismoniy tarbiya ta'lim hududidagi tor doiradagi ixtisoslikdan kelib chiqadigan kasb mahorati va kasbiy ongdan tashkil topadi. Ular optimal darajadagi ruhiy kayfiyat va fiziologik sarflar hisobiga ijobiy natijaga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun qulay ishlash muhitini yaratish muhim hisoblanadi. Ayrim ta'lim muassasalarida sport zallari, stadionlar va boshqa sport inshootlarining yetishmasligi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'liq tashkil etishga to'sqinlik qilmoqda.

Aholining salomatligi va ovqatlanish madaniyati ham jismoniy faollik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik, noto'g'ri ovqatlanish odatlari hamda jismoniy faollikning kamligi turli salomatlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bilan birga, jamiyatda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabat, aholining sportga qiziqishi va faolligi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Jamoatchilik o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sport madaniyatini shakllantirish jismoniy tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat va jamoat tashkilotlari, oila va jamiyatning hamkorligi zarur. Jismoniy tarbiyani rivojlantirish uchun samarali dasturlar va loyihalarni amalga oshirish kerak.

MUMMOLAR VA YECHIM

Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarning kasbiy mahoratini rivojlantirish bir qator dolzarb muammolar bilan bog'liq. Bugungi kunda sohada yuzaga kelayotgan asosiy muammolar qatoriga moliyaviy resurslarning yetishmasligi kiradi. Ko'plab ta'lim va sport muassasalarida zamonaviy sport jihozlari, inventar va infratuzilmani yaratish uchun mablag' yetarli emas, bu esa mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, malakali mutaxassislar yetishmasligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylarining kasbiy tayyorgarligi va metodik ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlari cheklangan, bu esa ularning samarali faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

Ishlash muhiti bilan bog'liq muammolar ham ahamiyatlidir. Ba'zi ta'lim muassasalarida sport zallari, stadionlar va boshqa sport inshootlari yetishmaydi yoki mavjud bo'lsa ham qulay ishlash sharoiti yo'q. Bu mashg'ulotlarni sifatli tashkil etishni qiyinlashtiradi.

Aholining salomatligi va ovqatlanish odatlari ham jismoniy faollikka bevosita ta'sir qiladi. Noto'g'ri ovqatlanish va harakatsizlik o'quvchilarning barqaror salomatligini pasaytiradi va sport mashg'ulotlarining samaradorligini kamaytiradi.

Shuningdek, jamiyatda sport va jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tibor yetarli darajada rivojlanmagan. Aholining sog'lom turmush tarziga qiziqishi va sport madaniyatini targ'ib qilishni kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta samarali chora-tadbirlar mavjud. Avvalo, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida moliyaviy resurslarni kengaytirish, zamonaviy sport inshootlarini yaratish va ta'lim muassasalarini jihozlash lozim. Shuningdek, mutaxassislarning uzluksiz ta'lim tizimi, malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlar orqali kasbiy kompetensiyasini oshirish muhimdir.

Ishlash muhitini yaxshilash, ya'ni sport zallari va stadionlarni qurish, qayta ta'mirlash va mashg'ulotlar uchun qulay sharoit yaratish ham zarur. Bundan tashqari, o'quvchilarning barqaror salomatligini ta'minlash maqsadida sog'lom turmush tarzini, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikni targ'ib qilish lozim.

Oxirgi muhim jihat – jamiyat va oila bilan hamkorlikni mustahkamlashdir. Ota-onalar, mahalla va ijtimoiy tashkilotlar bilan birgalikda sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali jismoniy tarbiya tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Shu yo'nalishdagi tizimli ishlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda barqaror natijalarga erishishga xizmat qiladi.

XULOSA

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar jamiyatning turli qatlamlariga ta'sir ko'rsatadi, ammo ularni hal qilish uchun samarali tadbirlar ko'rilishi kerak. O'zbekistondagi sportni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, maktablar va sport klublarini modernizatsiya qilish, ayollar va qizlarning sportga jalb etilishini ta'minlash, hamda yoshlarning jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning kasbiy mahoratini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sohada mavjud muammolarni bartaraf etish, mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda zamonaviy pedagogik

va metodik yondashuvlarni joriy etish jismoniy tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda davlat siyosati, ta'lim muassasalari faoliyati hamda jamoatchilikning hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Mutaxassislarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish kelajakda sog'lom, jismonan barkamol avlodni tarbiyalashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Salomov., M.M.Ruzioxunova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1995 y.
2. R. Salomov. Sport mashg'ulotlarida qo'llaniladigan usullar. Toshkent, 1991 y.
3. Yuldashov, I., Umaralievich, K. U., Goynazarov, G., & Abdurakhmonov, S. (2021). Innovative development strategy in the field of sports and the basics of its organization. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 48-53.
4. ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ТАЪЛИМИДА СПОРТ ИФОДАСИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 222-225.
5. Парпиев, О., Абдурахмонов, Ш., Ғойназаров, Ф. (2022). ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯЛАШ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ҲАРАКАТ СИФАТЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (Special Issue 3), 103-108.
6. Yuldashov, I., & Goynazarov, G. (2021). A need to improve the institutional system for increasing the social activity of young people at the stage of development. *Интернаука*, (12-3), 18-19.
7. Abdullayev, A. (2022). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
8. Koshbaxtiyev, I.A., Kerimov, F.A., Akhmatov, M.S. (2005). Valeologiya asoslari: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: Fan.